

KATTALAR TA'LIMI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA TENDENSIYALARI

Bekmuradova Gulnoza Maxmudovna

A.Avloniy nomidagi MTI Doktorantura va magistratura bo'limi boshlig'i

E-mail: bekmuradovagulnoza@gmail.com

ANNOTATSIYA

Globalization and the rapid development of science and technology require rapid adaptation of specialists to modern requirements and professional innovations. Today, life itself demands that a specialist cannot successfully organize his professional and personal activities with the knowledge he received at a higher educational institution 5-10 years ago, and cannot ensure competitiveness in the labor market. This, in turn, determines the urgency of the issue of ensuring the level of professional and personal development by continuously improving the professional level and qualifications of specialists, retraining them in accordance with modern requirements and improving their qualifications. This article describes the modern trends of adult education in the system of retraining and professional development in Uzbekistan.

Kalit so'zlar: kattalar ta'limi, androgogika, tendensiya, malaka oshirish, qayta tayyorlash.

ADULT EDUCATION SYSTEM DEVELOPMENT PROBLEMS AND TENDENCIES

Bekmuradova Gulnoza Makhmudovna

Head of the Doctoral and Master's Department of NRI named after Avloni

E-mail: bekmuradovagulnoza@gmail.com

Globalization and the rapid development of science and technology require rapid adaptation of specialists to modern requirements and professional innovations. Today, life itself demands that a specialist cannot successfully organize his professional and personal activities with the knowledge he received at a higher educational institution 5-10 years ago, and cannot ensure competitiveness in the labor market. This, in turn, determines the urgency of the issue of ensuring the level of professional and personal development by continuously improving the professional level and qualifications of specialists, retraining them in accordance with modern requirements and improving their qualifications. This article describes the modern trends of adult education in the system of retraining and professional development in Uzbekistan.

Keywords: adult education, androgogy, trend, professional development, retraining.

ПРОБЛЕМЫ И ТЕНДЕНСИИ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ВЗРОСЛЫХ

Бекмурадова Гулноза Махмудовна

Заведующий отделом докторантуры и магистратуры НИИ им. А. Авлони

Э-маил: bekmuradovagulnoza@gmail.com

Глобализация и бурное развитие науки и техники требуют быстрой адаптации специалистов к современным требованиям и профессиональным инновациям. Сегодня сама жизнь требует, чтобы специалист не смог успешно организовать свою профессиональную и личную деятельность с теми знаниями, которые он получил в вузе 5-10 лет назад. Это, в свою очередь, определяет актуальность вопроса обеспечения уровня профессионального и личностного развития путем постоянного повышения профессионального уровня и квалификации специалистов, их переподготовки в соответствии с современными требованиями и повышения их квалификации. В данной статье описаны современные тенденции образования взрослых в системе переподготовки и повышения квалификации в Узбекистане.

Ключевые слова: образование взрослых, андрогогика, направление, повышение квалификации, переподготовка.

KIRISH

XX asrning o‘ziga xos xususiyati bilimlarning tez o‘sishi va yangilanishi, yangi kasblarning paydo bo‘lishi – ilmiy-texnikaviy inqilob natijasidir. Uning salbiy oqibati mutaxassislarning bilimi va malakasining eskirishi va eskirish jarayonining tezlashishi hisoblanadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, XX asr o‘rtalaridan boshlab institut bitiruvchisining ishga kirgandan so‘ng institutda olgan bilimlari 5-6 yil ichida yarmiga va xatto 97% gacha eskiradi va faqatgina har yili o‘qituvchilar, muxandislar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarning nazariy bilimlari 5% va amaliy bilimlari 20% ga yangilanadi. [1] Dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv va axborotlashtirish jarayonlari ko‘proq bilim olishga zamondan ortda qolmaslik, yangi tendensiyalardan doimo xabardor bo‘lishga olib keldi. Shu munosabat bilan dunyoda kattalar ta’limiga bo‘lgan ehtiyoj o‘sa boshladi. Kattalar ta’limining yangi, noan’anaviy shakllarining paydo bo‘lishi ortib bormoqda: masofaviy ta’lim, uchinchi yoshdagi universitetlar, biznes maktablari, uyda o‘qitish uchun korporativ universitetlar va boshqalar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazkur maqolada kattalar ta’limining yildan-yilga dolzarb bo‘lib borayotganligi, ko‘plab mamlakatlarda kattalar ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy strategiyalar va davlat dasturlari ishlab chiqilishi yoritib o‘tilgan. Katta yoshdagilar ta’limning turli shakllarida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashda ishtiroki sezilarli darajada oshishida umumiy tendentsiyalari tahlil qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kattalar o‘qishi va ularga ta’lim berish hayot davomida ta’lim olishning muhim qismi bo‘lib hisoblanadi va hozirgi zamonda bunday ta’lim butun dunyodagi odamlar va jamiyat duch kelayotgan masalalarni yechishda muhim rol o‘ynamoqda.

YUNESKOning kattalar ta’limi bo‘yicha 2009-yil dekabrda o‘tkazilgan oltinchi Xalqaro konferensiyasida (CONFINTEA VI) qabul qilingan «Belen harakatlar me’yori»da aytilishicha, «Kattalar o‘qishi va ularga ta’lim berish odamlarga o‘z haq-huquqlarini rivojlantirish va ro‘yobga chiqarish hamda o‘z taqdirlarining egalari bo‘lishlari uchun zarur bilmalar, malakalarni egallash, fazilat va qadriyatlarni qaror toptirishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birgalikda kattalar o‘qishi va ularga ta’lim berish adolat va inklyuzivlikka erishish, qashshoqlikning ko‘lamini kamaytirish va savodxonlikka asoslangan adolatli, bardoshli va barqaror jamiyat yaratish uchun mutloq zaruriyat bo‘lib hisoblanadi».

Biroq kattalar ta’limini to‘liq amalga oshirish uchun u tegishli kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan odamlarga tayanishi kerak. Odatda maktablarda bolalarga dars beradigan o‘qituvchilar o‘qituvchilik faoliyatini boshlashdan avval ko‘pincha universitetlarda kasbiy tayyorgarlikdan o‘tadilar, kattalarga dars beradiganlar uchun esa bu ko‘p hollarda unday emas. Shuning uchun kattalar ta’limi sohasini professionallashtirish alohida mamlakatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham butun dunyoda asosiy muammo sifatida qabul qilinadi.

«Belen harakatlar me’yori» bu sohadagi asosiy vazifalardan biri hisoblangan kattalar ta’limi sohasida ish olib boradigan mutaxassislarining kasbiy malakalarini oshirishni belgilaydi va quyidagilarni qayd etadi: “Kasbiy mahoratning talab darajasida bo‘lmasligi va pedagoglarni tayyorlashga imkoniyatlarning yetishmasligi kattalarni o‘qitish va ularga ta’lim berish dasturlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kattalar ta’limi bo‘yicha 150 dan ortiq mamlakatlar tomonidan konferensiyaga tayyorlangan ma’ruzalarning uchdan bir qismida malakali xodimlarning yetishmasligi haqidagi eslatmalar o‘rin olgan bo‘lib, bu masala hal qilinishi uchun choralar ko‘rilishi kerak bo‘lgan yirik muammolardan biri ekanligi aks ettirilgan. [1]

Ushbu holatga YUNESKOga a’zo davlatlarning javobi shunday bo‘ldi-ki, CONFINTEA konferensiyasida qabul qilingan boshqa qarorlardan tashqari “kattalar bilan ish olib boradigan pedagoglarning masalan, oliv o‘quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalari, o‘qituvchilar uyushmasi va fuqarolik jamiyati tashkilotlari vositasida tayyorgarligini, salohiyatni oshirish, yollash shartlari va kasbiy mahoratini takomillashtirish” majburiyatlarini o‘z zimmalariga oldi.

CONFINTEA Xalqaro konferensiyalar hujjatlari

CONFINTEA Xalqaro konferensiyalar hujjatlari 40-yillarning oxiridan boshlab (har 12-13 yilda) YUNESKO katta yoshdagilar ta’limi masalalari bo‘yicha xalqaro konferensiya (The International Conference on Adult Education – CONFINTEA) o‘tkazib keladi. Jami olti marta konferensiya o‘tkazilgan: Daniya (1949), Kanada (1960), Yaponiya (1972), Fransiya (1985), Germaniya (1997) mamlakatlarida, so‘nggi CONFINTEA VI konferensiyasi 2009 yilda Braziliya (Belen shahri)da o‘tkazildi. CONFINTEA konferensiyasida muhokama qilish uchun asosiy mavzu (predmet) katta yoshdagilar ta’limini rivojlantirishning dolzarb muammolaridan iboratdir. [2]

“Katta yoshdagilar ta’limi” tushunchasi rasmiy yoki boshqacha shakldagi ta’limning olg‘a intiluvchan jarayonlari butun majmui (kompleksi)ni o‘z ichiga olib, uning yordamida o‘zлari tegishli bo‘lgan jamiyat nuqtai nazarida katta yoshdagilar qatoriga tan olingan odamlar o‘zlarining qobiliyatlarini rivojlantiradilar, o‘z bilimlarini boyitadilar hamda texnik va kasb-hunar malakalarini takomillashtiradilar yoki ulardan o‘z ehtiyojlarini va o‘z jamiyatining ehtiyojlarini qondirish uchun yangi yo‘nalishda foydalanadilar.

Katta yoshdagilar ta’limi ham rasmiy ta’limni, ham uzlusiz ilm olishni, norasmiy o‘qitishni hamda norasmiy va qo‘srimcha (yordamchi) ta’limning butun doirasini qamrab oladi

Jahon amaliyotida ta’lim (maorif) sohasida uch turdagи faoliyat ajratib ko‘rsatiladi:

- umume’tirof etilgan diplom yoki attestat berilishi bilan yakunlanadigan **rasmiy ta’lim;**

- odatda hujjat berilishi bilan birga kechmaydigan, ta’lim muassasalari yoki jamoatchilik tashkilotlarida, klublar va to‘garaklarda, shuningdek repetitor yoki

murabbiy (trener) bilan yakka mashg‘ulotlar vaqtida olib boriladigan **norasmiy ta’lim**;

- kundalik hayotimizda birga kechadigan va aniq maqsadga qaratilgan xususiyatga egaligi majburiy bo‘lmagan yakka bilim orttirishdan iborat axborot olish uchun xizmat qiladigan (**informal**) **ta’lim**.

Germaniyada o‘tkazilgan CONFINTEA V, katta yoshdagilar o‘qishi va ta’limi muhimligining xalqaro miqyosda e’tirof etilishi va ushu sohada majburiyatlar qabul qilinishi tarixida hal qiluvchi bosqich bo‘ldi. CONFINTEA V natijalari bo‘yicha ikkita hujjat qabul qilindi – Gamburg katta yoshdagilar ta’limi to‘g‘risidagi deklaratsiyasi va “Kelajak kun tartibi”. Ularda dunyo hamjamiyatining diqqat-e’tibori katta yoshdagilar o‘qishi va ta’limi hayot davomida ta’lim olishning zarur tarkibiy qismi ekanligiga qaratildi.

2009-yilda Braziliyada (Belen shahrida) o‘tkazilgan CONFINTEA VI jamoatchilik tomonidan katta yoshdagilar ta’limini va norasmiy ta’limini butun umr mobaynida ta’lim olishining tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilishini oshirishga chaqirdi. [3]

Katta yoshdagilar uchun qo‘sishimcha ta’lim muassasalari ham Katta yoshdagilar ta’limi tashkilotlari deb nomlanadi. Bunday tashkilotlar – Institutlar, markazlar, malaka oshirish fakultetlari, kadrlarning kasb-hunar tayyorgarligi va qayta tayyorlash markazlari, musiqa va san’at maktablari, madaniyat va ijodkorlik uylaridan iborat bo‘lishi mumkin. Bunday tashkilotlar, agar davlat tuzilmalari tomonidan tashkil qilingan va mablag‘ bilan ta’minlanadigan bo‘lsa, davlat Katta yoshdagi ta’lim muassasalariga tegishli bo‘ladi.

Dunyoda katta yoshdagilar ta’limi sohasida quyidagi tashkilotlar turlari eng ommaviylashgandir:

- Nodavlat notijorat tashkilotlari;
- Assotsiatsiyalar va uyushmalar;
- Xalq universiteti.

Ko‘plab chet el mamlakatlarida ommaviylashgan Katta yoshdagilar ta’lim muassasalari Xalq Universiteti – ma’lumot darjasini va yoshidan qat’iy nazar madaniyatni va kasbiy mahoratni oshirishga ko‘maklashuvchi ommabop ma’rifat muassasasidir. Xalq Universiteti ko‘pincha katta yoshdagilar ta’lim tizimiga kiritiladi. Birinchi Xalq Universiteti 1844-yilda Daniyada N.F. Grundtvig tomonidan tashkil qilingan. XIX asrning 40-70 yillarda bunday turdagil o‘quv muassasalari Skandinaviya mamlakatlarida, Germaniya va Finlyandiyada paydo bo‘lgan. Boshqa turdagil Xalq Universiteti Angliyada rivoj topdi, 1870 yilda Kembrij universiteti

qoshida Ochiq universitet tashkil qilindi. Bu yerda universitet professorlari ma’ruzalar o‘qishardi va mashg‘ulotlar olib borishardi. [3]

Katta yoshdagilar ta’lim uyushmalari faoliyatining muvaffaqiyatli tajribalariga o‘z faoliyatini bir necha mamlakatlar doirasida amalga oshiradigan Yevropa Katta yoshdagilar ta’lim uyushmasini misol sifatida keltirib o‘tish mumkin:

Yevropa Katta yoshdagilar ta’lim uyushmasi (European Association for the Education of Adults – EAEA) 1953-yilda Yevropada katta yoshdagilarning norasmiy ta’limini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun notijorat jamoat tashkiloti sifatida tashkil qilingan.

YEAEA – bu jami 34 ta mamlakatdan yuzdan ortiq a’zolik tashkilotlarini o‘zida birlashtiruvchi, katta yoshdagilar ta’limi sohasida faoliyat yurituvchi va butun Yevropa bo‘yicha 50 million nafardan ziyod katta yoshli ham erkak, ham ayol o‘quvchilarning manfaatlarini himoya qiluvchi Yevropa jamoat tashkilotidan iborat. Yevropa Katta yoshdagilar ta’lim uyushmasining asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- Yevropa darajasida butun umr mobaynida ta’lim siyosatini ishlab chiqish va targ‘ib qilish;
- o‘z a’zolariga axborot va boshqa xizmatlarni taqdim qilish; loyihalashtirish, nashr qilish va o‘qitish vositalari orqali vakolatlarni rivojlantirish;
- ushbu sohada Yevropa Katta yoshdagilar ta’lim uyushmasi bilan birga ishlaydigan boshqa tashkilotlar bilan xalqaro hamkorliklarni kuchaytirish.

YeAEA Lissabon ijtimoiy jalb qilinish strategiyasini yoritadi, katta yoshdagilar ta’limini rivojlantirishga ko‘maklashadi, katta yoshdagilarning rasmiy va norasmiy ta’limga jalb qilinishini kengaytirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ko‘radi. Yevropa Katta yoshdagilar ta’lim uyushmasining Bosh assambleyasi uyushmaning faoliyatini umumlashtiruvchi va kelgusi harakatlar strategiyasini ishlab chiquvchi har yil o‘tkaziladigan tadbir hisoblanadi.

ASPBAE – The Asia South Pacific Association for Basic and Adult Education (Osiyo va Janubi-Tinch okeani mintaqasi Katta yoshdagilar ta’limi masalalari bo‘yicha Assotsiatsiyasi) Osiyo-Tinch okeani mintaqasida faoliyat yurituvchi mashhur katta yoshdagilar ta’lim tashkilotlaridan biri hisoblanadi.

ASPBAE – 1964-yilda Sidney (Avstraliya)da mintaqada katta yoshdagilar ta’limini rivojlantirish g‘oyasi bilan ruhlangan katta yoshlilar ta’limi bo‘yicha mutaxassislar guruhi tomonidan ta’sis qilingan. Hozirgi vaqtida ASPBAE mintaqaviy uyushma (assotsiatsiya) hisoblanib, uning tarkibi 200 dan ortiq tashkilot va jismoniy shaxsni o‘z ichiga oladi. Uning ish faoliyati barcha uchun ta’lim sifatini oshirishga,

ta’limni transformatsiyalash va liberalizatsiya qilishga va katta yoshlilarning butun umr mobaynida o‘qib-o‘rganishi (ta’limi)ga qaratilgan. [4]

ASPBAE hukumat va xalqaro donor tashkilotlari tomonidan ta’lim sohasidagi majburiyatlarning bajarilishi jarayonida ko‘proq hisobdorlikni ta’minalash uchun ta’lim bo‘yicha mahalliy jamoatlar va tashkilotlar, milliy uyushmalarini, o‘qituvchilar kasaba uyushmalarini, kompaniya tarmoqlarini va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Osiyo va Janubi-Tinch okeani mintaqasi harakatini kuchaytirishga intiladi. Hukumat bilan birgalikda o‘z ishi orqali ASPBAE quyidagilarni amalga oshiradi:

- barchaning bilim olish huquqini ta’minalash;
- ta’limdan qashshoqlikka hamda cheklash va kansitilishning barcha shakllariga qarshi kurash bo‘yicha imkoniyatlarni kengaytirish vositasi sifatida foydalanish;
- odamlarning boshqaruvda faol va samarali ishtirok qilishi;
- tinchlik va xalqaro hamjihatlik madaniyatini shakllantirish.

ASPBAE rasmiy va norasmiy katta yoshdagilar ta’limida ishtirok qiluvchi, Ilmiyishlab chiqarish birlashmasi, jamoat tashkilotlari, davlat muassasalar, universitetlar, tub aholi kasaba uyushmalar, ayollar tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda butun Osiyo va Tinch okeani mintaqasi bo‘yicha boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan birga yoki ular orqali faoliyat yurituvchi tashkilotlar va shaxslarning tarmog‘ini o‘z ichiga oladi.

Kattalar ta’limi tushunchasining o‘zi kabi, kattalarga ta’lim beruvchi o‘qituvchining roli ham mavjud sharoitlar, shuningdek iqtisodiy jihatlar, madaniy omillar va ta’lim sohasidagi tendensiyalarga bog‘liqdir.

Shunday qilib, bu barcha mamlakatlar, hududlar va o‘quv predmeti sohalarida qo‘llanishga mo‘ljallangan o‘quv dasturi uchun muayyan meyorlar/talablar/chegarani yaratadi. Boshqa tomondan, kattalar ta’limini professionallashtirish zaruratini anglash butun dunyoda shu darajada tarqalganki, «Belen harakatlar me’yori»ning kattalar ta’limi sifatiga bag‘ishlangan bobida aks ettirilgan chaqiriqda o‘z ifodasini topgan: “kattalar bilan ish olib boruvchilarni tayyorlash, salohiyat, yollash shartlari va pedagoglarning kasbiy mahoratini yaratishni takomillashtirish kerak, masalan oliy o‘quv yurtlari, o‘qituvchilar assotsiatsiyasi va fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan o‘rnataladigan hamkorlik aloqalari yordamida amalga oshirish lozim”.

2030-yilga qadar “kattalarga ta’lim beruvchi malakali o‘qituvchilar sonini, shu jumladan rivojlanayotgan mamlakatlarda kattalarga ta’lim beruvchi o‘qituvchilarni

o‘qitish bo‘yicha xalqaro hamkorlik o‘rnatish yordamida sezilarli darajada oshirish” orqali amalga oshirish mumkin bo‘ladi. [5]

Kattalarga ta’lim berish va ularni o‘qitish ishtirokchilarning samarali ta’lim olish qobiliyatlarini oshirishi, ta’lim natijalari uzoq vaqt foyda keltirishi va ta’lim olishning keyingi bosqichlari uchun poydevor vazifasini o‘tashi kerak. Shunday qilib, kattalarga ta’lim berishning vazifasi ularga nafaqat mazmunni o‘rgatish, balki ta’lim oluvchilar metaanglashi (o‘zining anglash jarayonini tahlil qila olish qobiliyati)ni rivojlantirish va o‘zining ta’lim olishini o‘zi tashkil etish jarayoniga ko‘mak berish uchun zarur bo‘lgan vosita va uslublar bilan tanishtirishdan ham iboratdir. O‘zining anglash jarayonini aniqlash, tahlil qilish va takomillashtirish ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashgan uzlusiz ta’lim olish uchun rag‘batlantirishni oshirish muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi. Bular ham turli vaziyatlarda va yangi bilim va kompetensiyalar bilan uyg‘unlashgan holda bilim va kompetensiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun dastlabki sharoitlar bo‘lib hisoblanadi. O‘qiy olish ko‘nikmasini shakllantirish, va bunda samarali o‘qish, katta yoshdagilarning hayoti davomida o‘qishini davom ettirishi uchun zarurdir.

2016-yildagi YUNESKOning katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish bo‘yicha global hisobotida ta’kidlanganidek, katta yoshdagilarga barqaror va sifatli ta’lim beradigan mamlakatlar, odatda, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, faol siyosiy va fuqarolik institutlariga, jamoatchilikning ishonchi va integratsiyasiga ega. Aksincha, hokimiyat va moddiy farovonlikda katta tengsizliklar bo‘lgan joyda katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish zarar ko‘radi. [6]

Afsuski, O‘zbekistonda bandlik muammolarini hal qilishda katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berishning salohiyatidan **deyarli foydalanilmaydi**. Mavjud ta’lim muassasalari katta yoshdagilar, ayniqsa, aholi ishsiz qatlamining yangi bilim va ko‘nikmalarga bo‘lgan ehtiyojini qondira olmaydi.

Butun dunyoda katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berishning ijobiy jihatlarini ko‘rsatadigan ko‘plab dalillar mavjud. Biroq, ko‘pgina mamlakatlar ularni davlat xarajatlari bilan taqqoslamaydilar. Aksariyat hukumatlar budgetning atigi 1 foizidan kamini katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish uchun ajratadilar, xolos. Istisno tariqasida, ushbu maqsadlar uchun davlat budgetining taxminan 10 foizini sarflaydigan davlat Finlyandiyadir. Darvoqe, katta yoshdagagi finlar yuqori darajada savodxonligi va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari yuksak ekani bilan mashhur. Shuningdek, ushbu mamlakat ish bilan bandlik masalalari bo‘yicha katta yoshdagilarga ta’lim berish va ularni o‘qitish bo‘yicha eng yuqori sarmoyaga egaligi bilan ham ajralib turadi.

XULOSA

Umuman olganda, daromadlari yuqori va iqtisodiyoti barqaror bo‘lgan davlatlarda katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berishdagi ishtiroki ham yuqori darajada ekanini ko‘rish mumkin. Ushbu mamlakatlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining a’zolari bo‘lib, bandlik va mehnat unumдорligi bo‘yicha katta ko‘rsatkich va natijalarga ega. Katta yoshdagilarga ta’lim berish imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun, tegishli kasbiy vakolatlarga ega bo‘lgan kattalar bilan ishlaydigan andragog-pedagoglarni tayyorlash muammosini hal qilish kerak. Biz bu masala bilan hech qachon shug‘ullanmaganmiz, hatto ko‘plab ta’lim sohasi xodimlarining o‘zлари bu so‘zni bиринчи мarta eshitishmoqda. Ammo bu muammo faqatgina O‘zbekistonda mavjud emas. Katta yoshdagilarga ta’lim berishning professionallik darajasini oshirish bugungi kunda ham bir mamlakat uchun, shu jumladan, xalqaro miqyosda ham asosiy muammo hisoblanadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiytadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 25.01.2021 yildagi PQ-4963-son.
2. Mirsoliyeva M.T. Andragogikaning taraqqiyot yo‘nalishlari. Zamonaviy ta’lim ta’lim. – 20216.-11
3. Andreev, V. I. Vvedenie v yevropeyskuyu sravnitelnyu pedagogiku. Mn.: NIO, 2001. – 110 s.
4. Knowles M.S. The Modem Practice of Adult Education. Andragogy versos Pedagogy. - N.Y., 1970.
5. The Adult Learner: A Neglected Species. - Houston, 1973
6. www.education.unesco.org.